

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati

2026-yil yanvar-iyun

- I. Yalpi ichki mahsulot
- II. Sanoat ishlab chiqarishi
- III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi
- V. Asosiy kapitalga investitsiyalar
- VI. Bajarilgan qurilish ishlari
- VII. Chakana savdo tovar aylanmasi
- VIII. Tashqi savdo aylanmasi
- IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari
- X. Korxona va tashkilotlar soni



I. Yalpi ichki mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda **1 072 670,1** mlrd so'mni hamda 2025-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati **8,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat tarmog'ining o'sishi **8,0 %** ni va YaIM o'sishiga ijobiy hissassi **2,0** foiz punktni (f.p.) tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining o'sishi **4,7 %** ni va YaIM o'sishiga ijobiy hissassi **0,7** f.p.ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining o'sishi **13,7 %** ni tashkil etdi. Qurilish tarmog'ining YaIM o'sishiga ijobiy hissassi **1,0** f.p.ni tashkil etdi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati **9,2 %** ni tashkil etdi. Shundan savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar **13,5 %** ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa **18,6 %** ga hamda boshqa xizmat sohalari **4,1 %** ga o'sdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hissassi **4,4** f.p.ni tashkil qildi.

Mahsulotlarga sof soliqlar hajmi **8,3 %** ga o'sdi va uning YaIM o'sishiga ijobiy hissassi **0,4** f.p.ni tashkil etdi.



II. Sanoat ishlab chiqarishi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalari tomonidan **637 205,9** mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarishi indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **108,0 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi **86,3 %**, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati **6,7 %**, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash **6,5 %**, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish **0,5 %** ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bu ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,8 %** ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda **7,9 %** ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida **2,1 %** ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatida fizik hajm indeksi **15,9 %** ga oshganligidir.

Qayta ishlash sanoati hajmlarining o'sishiga boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarishning o'sishi (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **167,5 %**), yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish (**148,3 %**) va kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish (**136,8 %**)ning o'sishi ta'sir ko'rsatdi.

Shu bilan birga, boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarishda (o'tgan yilning mos davriga nisbatan **93,5 %**) ishlab chiqarish hajmlarining pasayishi kuzatildi.



III. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmi **270 952,6** mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan **104,7 %** ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilikda, ovchilikda va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – **254 679,6** mlrd so'mni (**104,5 %**), o'rmon xo'jaligida – **14 338,2** mlrd so'mni (**106,6 %**), baliqchilik xo'jaligida – **1 934,8** mlrd so'mni (**135,6 %**) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot(xizmat)lari hajmining oshishi, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmining ko'payganligi (**3,8 %**) bilan bog'liq. Barcha toifadagi xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining oshishi sabzavotlarning – **6,7 %** ga, donli ekinlarning – **13,8 %** ga, kartoshkaning – **15,5 %** ga, poliz ekinlarining – **18,2 %** ga oshishi bilan izohlanadi.

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining **66,2 %**i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, **24,4 %**i fermer xo'jaliklari, **9,4 %**i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



IV. Inflyatsiya darajasi va iste'mol narxlari indeksi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasi **3,3 %** ni tashkil etdi.

2026-yil yanvar-iyun oylarida oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'rtacha **2,4 %** ga qimmatlashib, inflyatsiya darajasiga **0,99** f.p. ta'sir qilgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari ushbu davrda **3,9 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichning **1,25** f.p. o'sish sur'atini, xizmatlar esa **4,1 %** ga qimmatlashib, umumiy ko'rsatkichni qo'shimcha **1,08** f.p. o'sish sur'atini ta'minladi.

2025-yilning dekabriga nisbatan INI yuqori chegarasi **143,6 %** ("Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar"), quyi chegarasi – **100,4 %** ga ("Ta'lim sohasidagi xizmatlar") yetdi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida yig'ma INI o'sishiga "Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari" hamda "Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar" bo'limlaridagi narxlar o'zgarishi eng katta hissa qo'shdi (umumiy hisobda **+2,00** f.p. yoki umumiy ta'sirning **60,2 %**i). Boshqa bo'limlarning jami hissasi **+1,32** f.p.ni tashkil etdi.



V. Asosiy kapitalga investitsiyalar

2026-yilning yanvar-iyun oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi **338 944,2** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,5 %** ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi **11,4 %** ni, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **6,9 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **1,4 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **69,5 %**, shundan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **44,3 %**, aholi mablag'lari – **5,6 %**, Respublika budjeti – **4,8 %**, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – **0,4 %** ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2025-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi – **201,7 %**, Respublika budjeti – **153,2 %**, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – **145,4 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – **122,5 %**, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

investitsiya va kreditlar – **116,4 %**, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lar – **114,1 %**, aholi mablag'lari – **108,8 %**, korxonalar mablag'lari – **104,0 %** dan iborat.



VI. Bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida **192 008,1** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **113,8 %** ni tashkil etdi. Qurilish ishlari umumiy hajmining **48 140,2** mlrd so'mi yoki **25,1 %** yirik korxona va tashkilotlar tomonidan, **105 671,6** mlrd so'mi yoki **55,1 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan, **38 196,3** mlrd so'mi yoki **19,8 %** norasmiy sektor subyektlari tomonidan bajarildi.



VII. Chakana savdo tovar aylanmasi

2026-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **251 756,4** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,2 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **30,0 %** ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining **19,7 %** ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **15,9 %** ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **68,9 %** ni, uyushmagan savdo tovar aylanmasi **11,4 %** ulush bilan **28 783,3** mlrd so'mni tashkil etdi.



VIII. Tashqi savdo aylanmasi

2026-yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **41 011,1** mln AQSh dollarini tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan **2 830,9** mln AQSh dollariga yoki **7,4 %** ga ko'paydi. Eksport hajmi **15 862,3** mln AQSh dollarini tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **8,8 %** ga kamaydi. Import **25 148,9** mln AQSh dollariga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21,0 %** ga oshdi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **60,9 %** ni tashkil etdi, shu jumladan sanoat mahsulotlari – **14,6 %**, turli xil tayyor buyumlar – **8,6 %**, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar – **8,3 %**.

Import tarkibida asosiy ulushni mashinalar va transport uskunalari (**32,8 %**), sanoat tovarlari (**13,9 %**), shuningdek kimyoviy moddalar va ularga o'xshash mahsulotlar (**12,1 %**) tashkil etdi.



IX. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari

2026-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **664 914,4** mlrd so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **16,9 %** ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga savdo sohasida ishlab chiqarish xizmatlarining **14,9 %** ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri – **3,9 f.p.**), moliyaviy xizmatlarning **26,3 %** ga (o'sishdagi ta'siri **3,8 f.p.**), transport xizmatlarining **14,7 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,4 f.p.**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning **11,6 %** ga (o'sishdagi ta'siri **2,0 f.p.**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining **22,1 %** ga (o'sishdagi ta'siri **1,7 f.p.**) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari (**169 953,7** mlrd so'm, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati – **114,9 %**), transport xizmatlari (**115 153,8** mlrd so'm, yoki **111,6 %**), moliyaviy xizmatlar (**104 232,5** mlrd so'm, yoki **126,3 %**), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (**103 936,6** mlrd so'm, yoki **114,7 %**)ga to'g'ri keladi.



X. Korxona va tashkilotlar soni

2026-yil 1-iyul holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **505,4** mingtani (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etdi, ulardan kichik korxona va mikrofirmalar **435,4** mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahri (**113 510** ta), Toshkent (**49 841** ta), Samarqand (**43 874** ta), Farg'ona (**39 889** ta), Qashqadaryo (**32 838** ta), Buxoro (**30 798** ta) va Xorazm (**29 861** ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – **162 867** ta, sanoat sohasida – **63 312** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida – **39 464** ta, qurilish sohasida – **32 691** ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – **33 547** tani tashkil etdi.

2026-yil yanvar-iyul oylarida respublikada **45,4** mingta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan **44,0** mingtasi kichik korxona va mikrofirmalardir.

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra respublikada chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni **20 502** tani tashkil etdi. Ularning **4 611** tasi qo'shma korxonalar va **15 891** tasi xorijiy korxonalardan iborat.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistika ma'lumotlarini
tarqatish boshqarmasi

Manzil: 100170, Toshkent,
Mustaqillik shoh ko'chasi, 63
Kontaktlar: info@stat.uz
Tel.: +998 71 203-80-00 (1045)

